

**ALEKSANDR MAKEDONSKIY HAYOTI VA HUKMDORLIK DAVRI**

*Ahmedov Yusufboy Otanazar o`g`li  
Urganch Davlat Universiteti  
Ijtimoiy – Iqtisodiy fanlar fakulteti  
Tarix (mamlakatlar va yonalishlar bo`yicha)  
yo`nalishi 1-bosqich talabasi*

**Annotatsiya:** Ushbu maqola Aleksandr Makedonskiyning xayoti va u tuzgan ulkan davlati, ushbu davlatda va qoshni davlatlar bilan yurutgan siyosati, hukumdorligi davrida olib borgan yurishlari va bu davlatlarda olib borgan ishlarini organishdan va boshqa qator tadqiqotlar asosiy maqsad hisoblanadi.

**Kalit sozlari:** Aleksandr, Makedoniya, Fillip II, SHarqqa yurishlari, Aristotel, Afg`aniston, Iraq, Gomer, Aristotel, Yunon, Suqrot, O`rta Osiyo Samarkand.

**Аннотация:** Основной целью данной статьи является систематизация жизни Александра Македонского и построенного им великого государства, его политика в этой стране и с соседними странами, его походы во время его правления и дела, которые он совершал в этих странах, а также ряд других исследований.

**Ключевые слова:** Александр, Македония, Филипп II, Походы на Восток, Аристотель, Афганистан, Ирак, Гомер, Аристотель, Грек, Сократ, Средняя Азия Самарканд

**Annotation:** The main purpose of this article is to organize the life of Alexander the Great and the great state he built, his policy in this country and with neighboring countries, his campaigns during his reign and the work he did in these countries, and a number of other studies.

**Key words:** Alexander, Macedonia, Philip II, Marches to the East, Aristotle, Afghanistan, Iraq, Homer, Aristotle, Greek, Socrates, Central Asia Samarkand

Aleksandr makedonskiy zamonaviy madaniyat kontekstida hozirga qadar murojat qilib kelinadigan kam sonli antic davr shaxslaridan biridir. Aleksandrning faolyati kop jabhadan g`arb davlatlarining yamgi tarixidaki ayrim epizodlarni yodga solidi. Masalan, uning hozirgi Afg`aniston va Iroqdagi kampaniyasi G`arbning oxirgi o`n yilliklarda ushbu mintaqadagi aralashuviga oxshaydi. Aleksandr turli tarix va madaniyatga ega xalqlarning yetakchisi bolgan. Ba`zida mahalliy odatlar va dinini tushunmagani bois uning boshqaruvi omadsiz kechgan. Zamonaviy bosqichda Aleksandrning G`arb va sharq ortasida ko`plab darslar chiqarish mumkin. Iskandar Buyukning uch nafar xotini va 360 ta kanizakdan iborat harami bo`lgan. Haramdan faqatgina ikkita ayol – Kampaspa va Barsina ajralib turar edi. Iskandar shuningdek

Amazonka qirolichasi Faletris hamda Hindiston malikasi Kleofis bilan ham yaqin aloqada bo'lgan.

Iskandar Buyukning eng birinchi xotini – Baqtriya (ya'ni hozirgi O'zbekiston hududi) malikasi Roksana bo'lgan. Roksana buyuk sarkardaga turmushga chiqayotganida o'n to'rt yoshda bo'lgan. Nikoh marosimi 327 yilda bo'lib o'tdi. Iskandar Buyuk Baqtriyanı bosib olganda shoh butun oilasi bilan asirga tushadi, shu qatorda Roksana ham. Biroq shunga qaramasdan Iskandar bu go'zal qizni o'ziga xotinlikka oladi va u Iskandarga o'g'il tug'ib beradi. Bu bola Iskandarning to'ng'ich farzandi hisoblanadi. Keyinchalik sarkarda Eronning yana ikkita malikasi – Statira va Parisatidaga uylanadi.

Tarixchilarga ma'lumki, ilgarigi davrlarda xarbiy yurish tafsilotlari maxsus muarrixlar tomonidan kayd etilib borilgan. Iskandarning xam Evmen va Diodat degan muarrixlari solnomalar yozib berishgan. Iskandar bilan O'rta Osiyoga kelishgan. Ptolemey, Arastu o'z kundaliklarida xarbiy yurish tafsilotlarini kayd etib borishgan. Mana shu ma'lumotlar endigina tiklanayotgan tariximizni chukurrok bilishda bizga katta yordam beradi. Iskandar Zulqarnayn shaxsini yanada chukurrok o'rganish uchun kadimgi yunon va Rim tarixchilariga, ularning ijodiga murojaat etaylik. Arrianning «Aleksandrning yurishi», Kvint Kursiy Rufning «Aleksandr Makedonskiy tarixi», Plutarxning «Xayotnomalar», Diodorning «Tarixiy kutubxona» asarlarida Iskandarning O'rta Osiyoga yurishi keng tasvirlangan. Ularning nodir kitoblaridagi eramizdan avvalgi IV-III asrlar davriga oid ma'lumotlar juda kizikarli. Bu asarlarni o'kir ekanmiz, yurtimizning kadim tarixi, go'zal shaxarlari, muxtasham baxmal vodiylari, sersuv daryolari ko'z o'ngimizda gavdalanadi. Shu o'rinda o'z muloxazalarimizni bildirmokchimiz. Aleksandrning Iskandarga aylanib ketishi Gomerning-Umarga, Sokratning-Shuxratga yoki Varaxranning Baxromga aylanib ketishiga o'xshaydi.

Eramizdan oldingi VI-IV asrlarda Eronda Axomaniylar sulolasini xukmronlik kilgan. Ular xamisha Yunonistonga xavf solib turgan. Podsho Doro vakti-vakti bilan Yunonistonda konli urushlar olib borgan. Iskandarning otasi shox Filipp davrida Yunoniston xarbiy jixatdan chinikkan, kuchli davlatga aylangan edi. Filipp Sharkka yurishga tayyorgarlik kurayotgan bir paytda uz poytaxti Pelladada suikasdning kurboni bulgan. Uning ishini Iskandar davom ettirgan. Iskandar yoshligida Yunonistonning mashxur olimlari ko'lida taxsil ko'rgan. U ayniksa, xarbiy ta'limni puxta egallagan. 12-13 yoshidanok katta ko'shinga ko'mondonlik kilgan.

N.P.Ostroumovning «Iskandar Zulqarnayn» nomli kitobida O'rta Osiyoda xozirga kadar Iskandar nomi bilan boglik joylar tilga olinadi. Iskandar ko'l, Iskandar saroy, Iskandar qal'a, Iskandar minora shular jumlasidandir. Bularga ko'shimcha ravishda Namangan machitlarining biridagi Iskandar taxti, Samarkand yakinidagi

Gerasha (Grekshox) kishlogini, Nuratodagi Qal'ai Iskandariy, bir necha o'nlab korizlarni, Nurato yakinidagi Zulqarnayn kishlogini misol keltirishimiz mumkin

U davrda ayollarning qadri va darajasi ancha past bo'lishiga qaramasdan, Iskandar Buyuk ayollariga yaxshi muomala qilgan hamda ularning hurmatini joyiga qo'ygan. Uning birinchi ustozи buyuk faylasuf Arastu ham ayollarni erkaklardan ancha past qo'yishiga qaramasdan Iskandar ayollarni hamisha hurmat qilib kelgan. Aleksandrni kim va qachon birinchi marta buyuk deb ataganini bilmaymiz. Aftidan, bu uning tirikligida sodir bo'limgan. Tarixchilarining hisoblashicha, uni ilk bor eramizdan oldingi I asrda Rim komediyasida "buyuk" deyishgan. Ushbu komediyada Magnum ismi qo'llanilgan, bu lotinchada "buyuk" degani. Eramizdan oldingi 323-yilda vafot etguniga va eramizning I asrga qadar uni "buyuk" deya ta'riflash boshlangan.

**Foydalilanigan adabiyotlar:**

1. Rajabov R.R. Qadimgi dubyo tarixi.(Sharq, Yunoniston, Rim).T.,<<Fan va texnologiya >>,2009 ,440 bet.
2. A.Sagdullayev,V.A.Kostetskiy. Qadimgi dunyo tarixi (6-sinf darsligi).Toshkent.<<Yangiyo'l poligraf servise>>,2017.-192 bet
3. <http://www.odam.uz>